

SHARTNOMA №_01_

2022-yil "16" iyun

Toshkent sh.

Keyingi o'rinlarda "**Buyurtmachi**" deb yuritiladigan O'zbekiston Respublikasi **Yoshlar ishlari agentligi** nomidan Nizom asosida ish ko'ruvchi direktor **A.Z.Sa'dullayev** bir tomondan va keyingi o'rinlarda ikkinchi tomondan "**Ijrochi**" deb yuritiladigan **O'zbekiston yosh fermerlar Kengashi NNT** nomidan Ustav asosida ish ko'ruvchi rais **M.B.Inoyatov** quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Ushbu shartnomaga muvofiq "**Ijrochi**" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to'g'risida nizomning 11-bandiga muvofiq, yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida ishlarni bajarish ikkala taraf o'rtasida tuzilayotgan shartnomaning predmeti hisoblanadi.

1.2. "**Ijrochi**" mazkur shartnomaning 1-ilovasida belgilangan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq ishlarni bajarish, "**Buyurtmachi**" bajarilgan ishlarning haqini moliyalashtirish majburiyatini oladi.

2. Shartnoma bahosi

2.1. Shartnomaning umumiy qiymati 1 581 000 000 (bir milliard besh yuz sakson bir million) so'mni QQS siz tashkil etadi.

3. To'lovlar va hisob-kitoblar

3.1. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab "**Buyurtmachi**" 3 (uch) ish kunida mazkur shartnomaning 2.1-bandida keltirilgan pul mablag'larini 15 foizini "**Ijrochi**"ning bank hisobraqamiga naqd pulsiz shaklida o'tkazib beradi.

3.2. Qolgan 85 foiz to'lovlar **Ijrochi** tomonidan bajarilib, taqdim etilgan va **Buyurtmachi** tomonidan imzolangan bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan bo'lib-bo'lib to'lanishi mumkin.

3.3. Ushbu buyruqning 1.1-bandida belgilangan tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng ortib qolgan mablag'lar **Buyurtmachining** talabnomasiga asosan 3 ish kunida **Buyurtmachining** hisobraqamiga o'tkazilishi lozim.

4. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

4.1. "**Ijrochi**" quyidagilarga majbur:

mazkur shartnoma shartlariga rioya etish va o'z vazifalarini belgilangan muddatda sifatli bajarish;

ishlarni to'liq miqdorda ushbu shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan muddatda bajarish;

"**Buyurtmachi**" tomonidan ajratilgan pul mablag'laridan, shartnoma shartlariga muvofiq hamda amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilgan holda maqsadli foydalanish.

4.2. "**Buyurtmachi**" quyidagilarga majbur:

mazkur shartnoma shartlariga rioya etish;

mazkur shartnomada belgilangan muddatda va miqdorda to'lovlarni amalga oshirish.

4.3. "Ijrochi" quyidagi huquqlarga ega:

"Buyurtmachi" dan mazkur shartnoma shartlariga rioya etilishini talab qilish; mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorlarda haq to'lanishini talab qilish;

o'ziga bog'liq bo'lmagan uzrli holatlar sababli mazkur shartnomani belgilangan muddatlarda amalga oshira olmaganda, "Buyurtmachi" ga shartnoma muddatini uzaytirish haqida yozma ravishda murojaat qilish (bunda shartnoma muddatini uzaytirish masalasi "Buyurtmachi" tomonidan shartnoma shartlari bajarilishi kechiktirilishi sabablarini o'rganish asosida mustaqil ravishda 5 ish kuni mobaynida hal etiladi);

shartnomani amalga oshirishda jismoniy yoki yuridik shaxslarning ko'magidan foydalanish.

4.4. "Buyurtmachi" quyidagi huquqlarga ega:

mazkur shartnoma shartlariga va uning ilovalariga rioya etilishini, pul mablag'laridan maqsadli foydalanishni talab qilish;

"Ijrochi" tomonidan mazkur shartnoma shartlariga rioya etilishini nazorat qilish;

"Ijrochi" ga bog'liq bo'lmagan ayrim sabablarga ko'ra mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda amalga oshira olmaganda taqdirda shartnoma muddatini uzaytirish.

5. Korrupsiyaga qarshi qoidalar

5.1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z zimmlaridagi majburiyatlarni bajarish davomida O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunlari talablariga zid keluvchi biron bir xatti-harakatlarni sodir etmaydilar, jumladan, bir Tomon xodimlarining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali pora taklif etish, va'da berish, ta'ma qilish, to'lab berish kabi harakatlarni sodir etmaydilar, ya'ni xodimlar moddiy qimmatliklar olish yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishga rozilik bermaydilar. Tomonlar ko'rsatib o'tilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmasligi bo'yicha tegishli choralar ko'rilishini kafolatlaydilar.

5.2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon ikkinchi Tomon xodimining ushbu shartnomaga hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan xatti-harakatiga, shu jumladan korrupsion qonunbuzarlikni sodir etishga majburlash holatiga duch kelsa, bu haqda ikkinchi Tomonning mas'ul xodimlariga ma'lum qilishi lozim.

6. Shartnoma bo'yicha javobgarlik

6.1. Ijrochi tomonidan xizmatlarni bajarish muddati buzilgan hollarda sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

6.2. Ijrochi tomonidan bajarilgan, Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan xizmatlar haqini Buyurtmachi o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida,

ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

7. Shartnomaga o'zgartirish, qo'shimchalar kiritish va bekor qilish tartibi

7.1. Mazkur shartnoma shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi.

7.2. Mazkur shartnomani bekor qilish tomonlarning kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Nizolarni hal etish tartibi

8.1. Mazkur shartnoma yuzasidan vujudga keladigan har qanday nizolar tomonlarning kelishuviga muvofiq hal etiladi.

8.2. Tomonlar kelishuvga erishmagan taqdirda, vujudga kelgan nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

9. Fors-major holatlari

9.1. Tomonlarning irodasi va istaklariga zid ravishda yuzaga kelgan va kutib bo'lmaydigan yoki oldini olish mumkin bo'lmagan favqulodda vaziyat holatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarmaganlik uchun hech bir tomon boshqa tomon oldida javobgar bo'lmaydi, shu jumladan e'lon qilingan yoki haqiqiy urush, fuqarolik tartibsizliklari, epidemiyalar, pandemiya, embargo, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar va boshqa tabiiy ofatlar.

10. Shartnomani amal qilish muddati

10.1. Mazkur shartnoma Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022-yilning 31-dekabrga qadar amal qiladi. Ijrochi mazkur shartnomaning amal qilish muddati davomida shartnomani to'liq bajarishni o'z zimmasiga oladi. Ijrochi xizmatlarni muddatidan oldin ko'rsatish huquqiga ega.

11.2. Mazkur shartnoma taraflarning har biriga bir nusxadan jami ikki nusxada o'zbek tilida tuzildi.

11. Tomonlar rekvizitlari

<p>O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi 100011, Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 11-uy, "Markaziy bank" Toshkent shahar Bosh boshqarmasi IFUT 84111, MFO 00014, STIR 207 323 290 XS 23 402 000 300 100 001 010 Moliya vazirligi g'aznachiligi amaliyot boshqarmasi G'azna XS 23 402 000 300 100 001 010 "Markaziy bank" Toshkent sh. Boshqarmasi MFO 00014 STIR 201122919</p> <p>Direktor  A. Sa'dullayev</p> 	<p>"O'zbekiston yosh fermerlari Kengashi" NNT Toshkent shahar, Qatortol ko'chasi 60-uy H/R: 20212000500803696001 MFO: 00905 TIF Milliy bank Sayohat filiali INN: 207262337 OKONX: 27315080</p> <p>Rais  M. Inoyatov</p> 
---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

(Хушхуш хушса бман)

**Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalarini oshirish bilan bog'liq sarf-xarajatlar
SMETASI**

No	Xarajat nomi	Bajarish muddati	O'ichov birligi	Soni	Umumiy summasi
1.	Yoshlar uchun qishloq xo'jaligining turli yo'nalishlarida qo'llanmalar va targ'ibot materiallarini tayyorlash: Quyidagi mavzularda qo'llanmalar tayyorlash: - "Yer olish, biznes-reja tuzish va agrobiznesda imkoniyatlar" (A5 shaklda, hajmi: 128 bet); - "Mavsumiy agrotexnik tadbirlar" (A5 shaklda, hajmi: 128 bet); - "Dehqonchilikda marketing va agrobiznesdagi zamonaviy imkoniyatlar" (A5 shaklda, hajmi: 128 bet)	4 oy davomida	dona	Qo'llanmalar 1 tadan maketi (jami 3ta) tayyorlanadi	239 500 000
2.	Poster, infografika, fotoalbom, flayer, buklet va plakatlar tayyorlash va chop etish	6 oy davomida			
3.	Kouching va motivatsion videoroliklar tayyorlash	1 oydan so'ng har oy 8 tadan 5 oy davomida		40 ta	
4.	Targ'ibot materiallarini tayyorlash va yoshlarni jalb qilish uchun OA V va ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilish	har oyda 2 tadan 6 oy davomida (jami 10 ta)	dona	kamida 10 ta	128 000 000
5.	Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilimini oshirish, jumladan, dehqonchilik va agrotexnika tadbirlari bo'yicha foydali ma'lumotlar, qishloq xo'jaligida mavjud imtiyozlar reyestri, onlayn konsultatsiya berishga mo'ljallangan mobil ilova yaratish va uni yuritish	Mobil ilovani yaratish. 2 oy davomida Mobil ilovani yuritish ilova yaratilgan muddatdan boshlab 4 oy davomida	dona	1 ta	100 000 000
6.	Soha mutaxassislarini jalb qilgan holda respublikaning qishloq xo'jaligi faoliyati mavjud bo'lgan 157 ta tumanlarga	6 oy davomida	dona	157 ta	935 500 000

	borib, ushbu sohada seminar trening va tanlovlarni amalga oshirish hamda tanlov g'oliblari uchun esdalik sovg'alarini topshirish.				
7.	Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotda ishlarni muvofiqlashtiruvchi xodimlar uchun ish haqi va tashkiliy ishlar xarajatlari	6 oy davomida	dona	-	178 000 000
JAMI:					1 581 000 000

**Ёшлар ишлари агентлиги ва “�збекистон ёш фермерлар Кенгаши” ННТ
ўртасидаги ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш тўғрисидаги шартнома
лойиҳасининг амалдаги қонунчилик ҳужжатларига
мувофиқлиги юзасидан
ҲУҚУҚИЙ ХУЛОСА**

Шартнома тури: ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш.

Шартнома тарафлари: Ёшлар ишлари агентлиги ва “�збекистон ёш фермерлар Кенгаши” ННТ.

Шартномани тузишга асос: Ёшлар ишлари агентлиги директорининг 2022 йил 19 майдаги 01-10/151-сон “Ёшларнинг қишлоқ хўжалиги соҳасидаги билим кўникмаларини амалга оширишга қаратилган хизматларни харид қилиш тўғрисида” буйруғи, Ёшлар ишлари агентлиги харид комиссиясининг 2022 йил 15 июндаги 94889-сонли лот бўйича ўтказилган йиғилиш баёни.

Шартноманинг амалдаги қонунчилик ҳужжатларига мувофиқлиги юзасидан хулоса:

1. Шартнома Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг “Ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш” деб номланган 38-боби қоидалари билан тартибга солинади.

2. Шартномада унинг предмети, тарафларнинг мажбуриятлари, хизматларни кўрсатиш муддатлари ва тартиби, хизматлар қиймати ва ҳисоб-китобларни амалга ошириш тартиби, коррупцияга қарши қоидалар (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 14 сентябрдаги ПФ-6313-сон Фармони 3-бандига мувофиқ), тарафларнинг жавобгарлиги, низоларни ҳал қилиш тартиби, форс-мажор ҳолатлари, шартноманинг амал қилиш муддати, унга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, бекор қилиш тартиби, тарафларнинг реқвизитлари белгиланган.

Ёшлар ишлари агентлиги Юридик бюроси томонидан ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш натижаларига кўра

ХУЛОСА :

Ёшлар ишлари агентлиги ва “Ўзбекистон ёш фермерлар Кенгаши” ННТ ўртасидаги ҳақ эвазига хизмат кўрсатиш тўғрисидаги шартнома лойиҳаси амалдаги қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ таҳрирда тузилган.

Ушбу хулоса шартноманинг суммасига, Ижрочи томонидан кўрсатиладиган хизматлар ва товарларнинг қиймати бозор нархларига мувофиқлиги ёки мувофиқ эмаслиги масаласига татбиқ этилмайди ва Юридик хизмат ушбу масала юзасидан жавобгарликни ўз зиммасига олмайди.

Юридик бюро бошлиғи



А.Халиков

2022 йил 15 июнь

“TASDIQLAYMAN”



O'zbekiston Respublikasi

Yoshlar ishlari agentligi direktorining

birinchi o'rinbosari, xarid komissiyasi raisi

J.Xodjayev

2022-yil 15-iyun

Tanlov savdolarini o'tkazuvchi xarid komissiyasining davlat xaridlarining elektron portaliga e'lon qilingan 94889-sonli lot bo'yicha Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatish xizmatini xarid qilish uchun o'tkazilgan yig'ilish

BAYONI

2022-yil 15 iyun

Toshkent shahar

Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2021-yil 19-iyuldagi 01-10/152-son buyrug'iga asosan Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatida tashkil etilgan xarid komissiya quyidagi a'zolari ishtirok etdi:

Xarid komissiyasi raisi:

J.Xodjayev Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari;

Komissiya a'zolari:

A.Xalikov Yuridik byuro boshlig'i;

D.Ubaydullayev Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i;

A.Muminov Inson resurslarini boshqarish bo'limi bosh boshlig'i;

A.Hidoyatov Yoshlar bandligini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

Komissiya kotibi:

A.Gulamov Ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi.

KUN TARTIBI:

Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2022-yil 19-maydagi 01-10/151-son “Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xizmatlarni xarid qilish to'g'risida”gi buyrug'iga asosan Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatish xizmatini xarid qilish bo'yicha tanlov g'olibini aniqlash.

(J.Xodjayev, A.Xalikov, D.Ubaydullayev, A.Muminov, A.Hidoyatov)

Komissiya raisi kворum mavjudligi inobatga olib kun tartibini ochish taklifini kiritdi va ovozga qo'ydi.

Ovozga qo'yish:

Komissiya a'zolari tomonidan taklif bir ovozdan ma'qullandi.

Komissiya raisi 2022-yil 19-maydagi 01-10/151-son “Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xizmatlarni xarid qilish to'g'risida”gi buyrug'iga asosan Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi

bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatish xizmatini xarid qilish olish belgilanganligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng, komissiya raisi so'z navbatini komissiya kotibi A.Gulamovga berdi.

Komissiya kotibi komissiya a'zolarini tanlov savdolarini o'tkazish tartibi bilan tanishtirib, Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil 19-maydagi 01-10/151-son "Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xizmatlarni xarid qilish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatish xizmatini xarid qilish to'g'risidagi e'lon bo'yicha tanlov natijalari 2022-yil 10-iyunda maxsus axborot portali etender.uzex.uz saytida 2022-yil 31-maydagi 94889-son lotida elekton shakl (pdf) da shakllanganligini eslatib o'tdi.

2022-yil 13–15-iyun kunlari maxsus axborot portali etender.uzex.uz saytida joylashtirilgan bayon bo'yicha taklif va shikoyatlar kelib tushmadi.

Shundan so'ng, Komissiya raisi 2022-yil 31-maydagi 94889-son lotida 2022-yil 10-iyun kuni bo'lib o'tgan tanlov g'olibini tasdiqlash masalasini ovozga qo'ydi.

Ovozga qo'yish natijalariga muvofiq xarid komissiyasi






Q A R O R Q I L A D I :

1. Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatish xarid qilish bo'yicha 2022-yil 31-maydagi 94889-son lotida 2022-yil 10-iyun kuni bo'lib o'tgan tanlov jarayoni yakunlangan deb hisoblansin.

2. Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatish xizmatini xarid qilish bo'yicha "O'zbekiston yosh fermerlar kengashi" NNT 1 581 000 000 (bir milliard besh yuz sakson bir million) so'm taklifi bilan tanlov g'olibi deb topilsin.

3. Yoshlar ishlari agentligiga tanlov g'olibi bilan tanlov savdolari shartlari asosida shartnoma tuzish tavsiya etilsin.

Xarid komissiyasi a'zolari:

A.Xalikov	
D.Ubaydullayev	
A.Muminov	
A.Hidoyatov	
Bayonni yuritdi	

A.Gulamov